**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Rektor ____________ Sh.Sirojiddinov

2023-yil “___” 28 -avgust

# “O‘ZBEK ORFOGRAFIYASI VA PUNKTUATSIYASI”

**fanining o‘quv dasturi (sillabusi)**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60230800 – Kompyuter lingvistikasi |

**Toshkent-2023**

| Fan/modul kodi 302O'OP 2 2 | | Fan/modul turi tanlov | | | Ta'lim tili o'zbek | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024 | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta' lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma' ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 3 | O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi | 2 | 2 | 30 | 14 | | 16 | 0 | 30 | 60 |
| | Jami: | 2 | 2 | 30 | 14 | | 16 | 0 | 30 | 60 |

## 1. FANNING MAZMUNI

"O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi" fani talabalarga hozirgi o'zbek tilining grafik va orfografik me'yor, alifbo va imlo islohotlari, imlo qoidalari, punktuatsion me'yor, tinish belgilarining qo'llanilishi bo'yicha nazariy bilimlar berish, yozma nutq bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalalarini dolzarb vazifalar sifatida belgilagan. "O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi" fani bo'lajak mutaxasislarning orfografiya me'yorlari yuzasidan ko'nikmalarini oshirish, punktuatsiya qoidalarini chuqur o'zlashtirishlarida asosiy manba bo'ladigan fanlardan hisoblanadi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni hozirgi o'zbek adabiy tilining grafik, orfografik va punktuatsion me'yorlarga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish.

Fanning vazifasi -

- grafik, orfografik va punktuatsion me'yorlar xususiyatlarini qiyosan o'rganish, bu sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash;

- hozirgi o'zbek adabiy tilining grafik me'yorlari, grafema va uning turlari haqida talabalarga ma'lumot berish;

- hozirgi o'zbek adabiy tili orfografik me'yori, kirill va lotin alifbolari, imlo qoidalari, ulardagi o'zaro farqli xususiyatlar haqida bilim berish;

- talabalarda punktuatsion me'yorlar, ya'ni tinish belgilarining qo'llanilishi, tinish belgilarini ishlatish ko'nikmasini shakllantirish.



## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

- hozirgi o'zbek tilining og'zaki va yozma shakllari, grafika, yozuv tarixi, yozuv islohotlari, kirill va lotin yozuvidagi o'zbek tilining imlo qoidalari, ularning o'zaro qiyosiy tahlili, o'zbek punktuatsiyasi asoslari, punktuatsiya tarixi, tinish belgilari turlari, ularning qo'llanilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

- grafema va uning turlari, o'zbek orfografiyasining prinsiplari, imlo qoidalari mazmuni, uni amalda qo'llay olish, tinish belgilari va ularni yozma nutqda qo'llay olishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- o'zbek tili grafikasi, orfografiyasi, punktuatsiyasi qoidalarini hayotda qo'llash, uni o'z faoliyatida ijodiy rivojlantira bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

"O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi" fanini o'tishda interfaol metodlar, xususan, matn ustida ishlash, analiz, sintez, statistik, xusni xat, ijodiy yondashuv, tavsiflash, tasniflash, baholash, komponent tahlil, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan boshqa metod va usullardan foydalaniladi.

## 4. TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan "O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi" fanidan 60 soat (3-semestrda 60) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 2 (3-semestrda 2) kredit beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi

**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi. Oraliq nazorat:** o'tilgan mavzular bo'yicha ***yozma ish*** shaklda o'tkaziladi.

O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga yozma javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savolnoma savollari O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi fani mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 30 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 90 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat

davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Yozma ishni baholash mezoni: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

**Yakuniy nazorat: Yakuniy nazorat:** O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi fani bo'yicha har bir talaba 30 ta savoldan iborat test topshiradi. Test kompyuterda test.navoiy-uni.uz platformasida tashkil etiladi. Talabaga login va parol orqali tizimga kirish imkoniyati yaratiladi. Test topshiriqlari savollari O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi fani mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 2 daqiqa, jami 30 ta savol uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshirish jarayonida test bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Test natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Testni baholash mezoni

Talaba jami savollardan 27-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 23-26 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-22 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va YNni topshira olmagan hisoblanadi.

*Izoh: Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

**A'lo (5)** baho olish uchun talaba hozirgi o'zbek tilining og'zaki va yozma shakllari, grafika, yozuv tarixi, yozuv islohotlari, kirill va lotin yozuvidagi o'zbek tilining imlo qoidalari, ularning o'zaro qiyosiy tahlili, o'zbek punktuatsiyasi asoslari, punktuatsiya tarixi, tinish belgilari turlari, ularning qo'llanilishi to'g'risida nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, grafema va uning turlari, o'zbek orfografiyasining prinsiplari, imlo qoidalari mazmuni, uni amalda qo'llay olish, tinish belgilari va ularni yozma nutqda qo'llay olishga oid savollarga ijodiy yondoshib, uning mohiyatini tushungan holda mustaqil ravishda mushohada yurita olishi, puxta bilishi va uni amaliyotda qo'llay olishi shart.

**Yaxshi (4)** baho olish uchun talaba yozuv tarixi, kirill va lotin yozuvidagi o'zbek tilining imlo qoidalari, ularning o'zaro qiyosiy tahlili, o'zbek punktuatsiyasi asoslari, punktuatsiya tarixi, tinish belgilari turlari, ularning qo'llanilishi to'g'risida



nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, grafema va uning turlari, o'zbek orfografiyasining prinsiplari, tinish belgilari va ularni yozma nutqda qo'llay olishga oid nazariy jihatdan bilimlarga ega bo'lishi, qo'yilgan mavzuning mohiyatini tushuna bilishi va uni amaliyotda qo'llay olishi shart.

**Qoniqarli (3)** baho olish uchun talaba o'zbek orfografiyasining prinsiplari, "Harflar imlosi", "Asos va qo'shimchalar imlosi", "Qo'shib yozish", "Chiziqcha bilan yozish", "Ajratib yozish", "Ko'chirish qoidalari", "Bosh harflar imlosi" hamda punktuatsiya va uning prinsiplari, tinish belgilarining tasnifiga oid tushunchalarni qisman farqlay olishi shart.

**Qoniqarsiz (2)** baho talabaga o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: "Harflar imlosi", "Asos va qo'shimchalar imlosi", "Qo'shib yozish", "Chiziqcha bilan yozish", "Ajratib yozish", "Ko'chirish qoidalari", "Bosh harflar imlosi" hamda punktuatsiya va uning prinsiplari, tinish belgilarining tasnifi bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasligi va fanni o'zlashtirmaganligi uchun qo'yiladi.

**3. Nazorat o'tkazish muddatlari:**

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 3-SEMESTR

**1. Ma'ruza mashg'ulotlari**

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **1-bob (modul) mavzusi** | | |
| 1 | Kirish. Grafika va orfografiya. Yozuv turlari | Grafika haqida ma'lumot, orfografiyaning ob'ekti, grafema, grafema turlari, hozirgi o`zbek adabiy tili yozuv tizimlari. | 2 |
| 2 | 1900–1995-yillarda alifbo va imlo o'zgarishlari. Orfografiya va orfografik me'yor | O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish va yozuv tizimlari, o`zbek yozuvining 1940-1995 yillardagi holati, rus grafikasiga asoslangan yillar, ikki yozuvlilik yillari | 2 |
| | **2-bob (modul) mavzusi** | | |
| 3 | Orfografiya tamoyillari. O'zbek tilining kirill va lotin yozuvi imlo qoidalari, ularning qiyosi | Orfografiya prinsiplari, imlo qoidalari, kirill yozuviga asoslangan o`zbek yozuvining imlo qoidalari, lotin yozuviga asoslangan o'zbek yozuvining imlo qoidalari, kirillcha va | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | lotincha o'zbek yozuvlarining imlo qoidalaridagi tafovutlar | |
| 4 | Hozirgi o'zbek adabiy tili yozuv tizimlari. Yangi alifbo va kirill alifbosi imlo qoidalaridagi mavjud muammolar | Hozirgi o'zbek adabiy tili yozuv tizimlari haqida tarixiy-xronologik ma'lumot. Yangi to'plamda yangicha talqinda yoxud jiddiy o'zgarishlar bilan berilgan qoidalar. | 2 |
| | **3-bob (modul) mavzusi** | | |
| 5 | O'zbek punktuatsiyasi tarixi. Punktuatsiya – fikrni yozma mukammal ifodalash vositasi. | Punktuatsion belgilarning shakllari, qo'llanish o'rinlari, hozirgi punktuasion belgilarning shakllari va miqdori, tinish belgilarining yozma nutqni ifodalashdagi xizmati. | 2 |
| 6 | Tinish belgilarining gap oxirida qo'llanishi. Nuqta. So'roq. Undov va ko'p nuqta belgisi | Nuqtaning ishlatilish o'rinlari, undov belgisining qo'llanilish o'rinlari, so'roq belgisi. | 2 |
| 7 | Tinish belgilarining gap ichida qo'llanishi. Vergul. Nuqtali vergul. Tire. Ikki nuqta. Qavs. Qo'shtirnoq. | Vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta, qavs, qo'shtirnoqning qo'llanilishi. | 2 |
| | | **Jami:** | **14 s.** |

## 2. Amaliy mashg'ulotlar

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **1-bob (modul) mavzusi** | | |
| 1 | Grafika va yozuv tarixi. Lotin yozuvi imlo qoidalarining mazmuniy tavsifi. | Hozirgi o'zbek adabiy tilining yozma shakli, grafika, grafema tiplari va turlari, lotin-o'zbek yozuvining grafik tavsifi, imlo qoidalari. | 2 |
| | **2-bob (modul) mavzusi** | | |
| 2 | Asos va qo'shimchalar imlosi. Qo'shib va ajratib yozish imlosi bo'yicha mashqlar. | Orfografiya –yozuv tizimining ikkinchi komponenti, asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-qoidalar), qo'shib yozish (38-50-qoidalar), ajratib yozish (57-65-qoidalar). | 2 |
| 3 | Chiziqcha bilan yozish imlosiga oid mashqlar tahlili. | Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar). | 2 |
| 4 | Lotin va kirill alifbosiga asoslangan imlo qoidalari qiyosiy tahliliga doir mashqlar | Rus-o'zbek va lotin-o'zbek yozuvining imlo qoidalari, | 2 |
| 5 | Bosh va kichik harflar imlosi. Bo'g'in ko'chirish qoidalari. Qo'shma, juft, takroriy va qisqartma so'zlar imlosi. | Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar), ko'chirish qoidalari (75-82-qoidalar). | 2 |
| | **3-bob (modul) mavzusi** | | |
| 6 | Punktuatsiya va uning prinsiplari. Tinish belgilarining tasnifi. | Prosodemografemalar, nuqta, vergul, so'roq, undov, ikki nuqta, nuqtali vergul, ko'p nuqta (uch nuqta), tirnoq (qo'shtirnoq), qavs, tire. | 2 |
| 7 | Nuqta va vergulning qo'llanilishi. Undov, so'roq belgilarining nasriy va nazmiy matnda qo'llanishi ustida amaliy ish | Tinish belgilarining nasriy va nazmiy asarlarda qo'llanishi. | 2 |
| 8 | Rasmiy, ilmiy, badiiy va publisistik matnlar tahlili va ularda tinish belgilarining qo'llanilishi. | Turli nutq uslublarida tinish belgilarining qo'llanishi va ahamiyati. | 2 |
| | | **Jami:** | **16 s.** |

## 3. Mustaqil ta'lim ishlari

"Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar"ning asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan tadqiqot ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- o'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalar tayyorlash;
- badiiy asarlarni o'qish va mutolaa qilish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distansion) ta'lim.

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Qaysi o'quv mashg'ulot turiga mos kelishi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **1-bob (modul) mavzusi** | | | | |
| **1** | XX asr o'zbek yozuvi bilan bog'liq islohotlar. | Amaliy | Arab yozuviga asoslangan o'zbek yozuvi, rus-o'zbek grafikasi, lotin-o'zbek grafikasi | **2** |
| **2** | Lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929-1940). Islohotlari tahlili va lotin grafikasining o'ziga xosliklari. | Amaliy | o`zbek yozuvining 1929-1940 yillardagi holati, rus grafikasiga asoslangan alifboga o'tish yillari. | **2** |
| **3** | Rus grafikasiga (kirill alifbosiga) asoslangan yillar (1940- 1993). Islohotlari tahlili va rus grafikasining o'ziga xosliklari. | Amaliy | rus grafikasi, graftmatikasi, imlo qoidalari | **2** |
| **4** | Ikkiyozuvlilikka (rus-o'zbek va lotin-o'zbek alifbolariga) asoslangan yillar (1993-2010). Islohotlari tahlili. | Amaliy | rus-o'zbek grafikasi, lotin-o'zbek grafikasi, qiyosiy tahlil | **2** |
| **5** | Mustaqillik yillarida imlo muammolari | Amaliy | imlo, imlo qoidalari, imlo tamoyillari | **2** |
| **6** | Lotin alifbosiga asoslangan yozuvning bugungi kundagi mavqeyi | Amaliy | Davlat tili va yozuvi, lotin-o'zbek grafikasi, uning o'ziga xosliklari | **2** |
| **2-bob (modul) mavzusi** | | | | |
| **7** | Kirill yozuvidagi imlo qoidalarining mazmuniy tavsifi | Amaliy | rus-o'zbek grafikasi, imlo qoidalari, imlo tamoyillari | **2** |
| **8** | Lotin yozuvidagi imlo qoidalarining mazmuniy tavsifi | Amaliy | lotin-o'zbek grafikasi, imlo qoidalari, imlo tamoyillari | **2** |
| **9** | Badiiy asar misolida tinish belgilarining qo'llanish holatlari tahlili | Amaliy | Punktuatsion belgilar, qo`llanishi, vazifasi | **2** |
| **10** | Tinish belgilari qo'llanilishi bilan bog'liq munozarali holatlar | Amaliy | Punktuatsion belgilar, qo`llanishi, vazifasi, munozarali holatlar | **2** |
| **11** | Tinish belgilarining badiiy matndagi uslubiy xususiyatlari | Amaliy | Tinish belgilarining qo'llanishi va vazifalari | **2** |
| **3-bob (modul) mavzusi** | | | | |



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **12** | Mahmudov N. va b. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosini o'rganish kursi dasturi.–T.: 1996. Kitobni sharhlash. | Amaliy | lotin-o'zbek grafikasi, imlo qoidalari, imlo tamoyillari, sharhlar | **2** |
| **13** | Аминов М. ва б. Иш юритиш (амалий қўлланма).–Т.: 2000. Qo'llanmadan foydalanib ish yuritish mahoratini oshirish. | Amaliy | Qo'llanmadan foydalanib ish yuritish mahoratini oshirish. | **2** |
| **14** | Abdulahadova R. va boshqalar. Yangi o'zbek alifbosi va imlosi.–T.: 2005. Alifbo va imlo muammolari yuzasidan bildirilgan mulohazalarni tahlil etish. | Amaliy | Alifbo va imlo muammolari yuzasidan bildirilgan mulohazalarni tahlil etish. | **2** |
| **15** | Badiiy asarlar matni, undagi orfografik va punktuatsion jihatlar | Amaliy | Badiiy uslub, orfografik va punktuatsion qoidalar | **2** |
| | | | **Jami:** | **30 s.** |

## 6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

### Asosiy adabiyotlar:


1. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
2. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. –Toshkent, 2007.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002.


### Qo'shimcha adabiyotlar


1. Ahmedova N. O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2016.
2. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи. 1996.
3. Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. – Тошкент: Фан, 1956.
4. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari / Nashrga tayyorlovchi: Rahmatullayev Sh. –Toshkent: O'qituvchi, 1995.
5. O'zbek tilining imlo lug'ati/ Tuzuvchilar: Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. Ўзбек пунктуациясининг асосий қоидалари. – Тошкент: Фан, 2015.

## Internet saytlari

1. http:/www. ziyonet.uz.Ta'lim portali
2. http:/www.pedagog.uz/ Pedagogika muassasalari portali.
3. www.lex.uz
4. https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/tilshunoslik/punktuatsiya
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tinish_belgilari
6. https://nauka21veka.ru/articles/pedagogicheskie-nauki/o-zbek-tilining-orfografiyasi-va-punktuatsiyasi-1533108458/
7. https://hozir.org/jabbor-omonturdiyev-anvar-omonturdiyev.html?page=7
8. https://referat.uz/referat/13405-13405.html
9. http://ziyonet.uz/uz/site/search?Find%5Bsearch_value%5D=tinish%20belgilar&Find%5Bresource%5D=everywhere

## 7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

| |
|---|
| O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 202___ yil "___" "______" dagi "___" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| "__________________________" **kafedrasi mudiri, f.f.d., prof.**<br>________________________ ________________ *(imzo)* |
| **Tuzuvchi:**<br>D.Elova ________________ *(imzo)*<br>"Amaliy filologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi. |
| **Taqrizchilar:**<br>________________________ ________________ *(imzo)*<br>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,<br>________________________________________;<br>________________________ ________________ *(imzo)*<br>______________________________________________________________. |